

**СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
4 ЖИЛД, 2 СОН**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 4, НОМЕР 2**

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
VOLUME 4, ISSUE 2**



Бош муҳаррир:

Холбеков Муҳаммаджон

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Тўхтасинов Илҳом

ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

Тахрир хайъати:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек

масбул котиб, доцент (Ўзбекистон)

Главный редактор:

Холбеков Муҳаммаджон

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Тухтасинов Илҳом

к.ф.н., доцент (Ўзбекистон)

Редакционная коллегия:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабоев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек

отв. секретарь, доцент (Ўзбекистон)

Editor in Chief:

Kholbekov Muhammadjan

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

Tuhtasinov Ilhom

Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

Editorial Board:

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. sci., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. sci., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. sci., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. sci., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. sci. (Georgia)

Yusupov Oybek

Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT


83. Dilorom Nigmatovna Yuldasheva, Gulchehra Hamzayevna Ortiqova HARAKAT TARZI SHAKLLARI – O‘ZBEKONA NUTQ KO‘RKI.....	5
84. Хатамова Дилфуза Абдувахобовна, Алтундаг Мохигул Жамолдин қизи TARJIMADA EKVALENTLIK.....	14
85. Bayonxanova Iroda Furkatovna KOREYS TILIDA SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING IFODA MA’NOSIGA KO‘RA TURLARI.....	21
86. Сиддикова Ирода Абдузухуровна, Карабаева Барно Бобир қизи КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ГЛАГОЛОВ ЗРИТЕЛЬНОГО ВОСПРИЯТИЯ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ.....	26
87. Khodjakulova Feruza Rustamovna LEXICAL AND CULTURAL ASPECTS OF TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	34
88. Soliyeva Malika Abduzuhurovna, Xolboeva Dildora Baxtiyorovna INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BIZNES TURIZM LEKSIKASINIG SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	38
89. Нартаева Мухайё Бахтиёровна СТОМАТОЛОГИЯГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ.....	48
90. Бекбергенова Зияда Утеповна ЭПИК ТАЛҚИНДА ИККИ ОВОЗЛИ НУТҚНИ ИФОДАЛАШ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ.....	56
91. G‘aniyeva Dildora Azizovna, Turdiyeva Gulmira Akramjonovna HIS-HAYAJONNI IFODALOVCHI BIRLIKLAR MILLIY XARAKTER VA MILLIY MENTALITET MAHSULI SIFATIDA.....	65
92. Мусаева Шахло Қудратовна ЁНДОШ ПРОТОТИП ОБРАЗ АСОСИДА ЯРАТИЛГАН ҚИССА.....	71
93. Axmedov Umidjon Usubovich НОМИНАСИЯ ЖАРАЁНИНГ ҲОЗИРГИ ТИЛШУНОСЛИҚДАГИ ТАЛҚИНИ МАСАЛАСИ.....	75
94. Xalova Maftuna Abdusalamovna ISTIQLOL DAVRI SHE’RIYATIDA AYOLLAR OBRAZI.....	81
95. Хўжақулов Сирожиддин Холмахматович XX АСР БОШЛАРИ ЖАДИД АДАБИЁТИДА ЛИРИК ЖАНРЛАРНИНГ ЭВРИЛИШ МАСАЛАСИ ВА УНИНГ АЙРИМ МОДЕРНИСТИК ТАМОЙИЛЛАРИ.....	86
96. Otayorova Umida Bolibek qizi “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI HIKOYATLARNING ORIFONA TALQINI.....	95

97. Kodirova Shaxnoza Abdurahmonovna MADANIYATLARARO MULOQOT JARAYONIDA MULOQOTNING NOVERBAL VOSITALARNING GENDER XUSUSIYATLARI TALQINI (YAPON TILI MISOLIDA).....	103
98. Самиева Сайёра Неъматовна ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ГРАММАТИК КОМПЕТЕНЦИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАЪЗИ ТИЛЛАРАРО ҚИЙИНЧИЛИКЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ УСУЛЛАРИ.....	110
99. Berdibayev Ulug‘bek Soatboy o‘g‘li IBROYIM YUSUPOV IJODIDA LIRIK QAHRAMON KECHINMALARINING BADIY AKSI.....	117
100. Qarshiyeva Mahbuba Abduvali qizi “HAYRAT”DAN ORTAR HAYRATIM.....	122
101. Umida Yuldosheva FIKRLAR TASVIRI*.....	130

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Dilorom Nigmatovna Yuldasheva,
Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi
kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi
Gulchehra Hamzayevna Ortiqova,
Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi
kafedrası magistranti

HARAKAT TARZI SHAKLLARI – O'ZBEKONA NUTQ KO'RKI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-83>

ANNOTATSIYA

O'zbek tili o'zining ko'p asrlık tarixi, so'zga boyligi, ma'no serjiloligi hamda mavjud durdonalari bilan dunyo yuzini ko'rgan tillardan hisoblanadi. Bu tilning shunday ifoda xosliklari ham borki, ularni boshqa hech bir tilda bu tarzda ixcham va go'zal ifodalab bolmaydi.

O'zbek tilshunosligida fe'llarning harakat tarzi shakllari orqali ish-harakat va holatning bajarilish davri (boshlanishi, vaqti-vaqti bilan yoki muntazam davomiyligi, to'la yoki to'kis tugallanganligi), tarzi (tezligi, imkoniyati) yoki bajaruvchining ish-harakat va holatga turlicha munosabati (xayrixohligi, manfaati) kabi qo'shimcha ma'nolar ifodalanadi. Nutqning barcha uslublarida foydalanish mumkin bo'lgan ushbu til hodisasi muayyan ifodaning o'ziga xos ma'no qirralarini ochib berish uchun xizmat qila oladi.

Maqolada bir necha harakat tarzi shakllarining turli ma'no tovlanishlari badiiy asar qahramonlari nutqi misolida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ko'makchi fe'l, o'z ma'no, qo'shimcha ma'no, vid kategoriyasi, harakat-holatning bajarilish davri, harakat-holatning bajarilish tarsi

Дилором Нигматовна Юлдашева,
профессор кафедры узбекского языкознания
Бухарского государственного университета,
кандидат педагогических наук.
Гульчехра Хамзаевна Ортыкова,
Магистрант кафедры узбекского языкознания
Бухарского государственного университета

ФОРМЫ ДВИЖЕНИЯ - УЗБЕКСКАЯ РЕЧЬ КРАСОТА

АННОТАЦИЯ

Узбекский язык – один из языков, повидавших мир с его многовековой историей, богатством слов, богатством смысла и существующими шедеврами. Он также обладает выразительными чертами, которые невозможно выразить лаконично и красиво на любом другом языке.

В узбекской лингвистике период действия (начало, периодическая или регулярная продолжительность, полное или полное завершение), стиль (скорость, способность) или действие исполнителя через формы действия глаголов и дополнительных значений, таких как различное отношение к ситуации (доброжелательность, интерес). Этот лингвистический феномен, который может использоваться во всех формах речи, может служить для выявления конкретных семантических аспектов конкретного выражения.

В статье показаны разные значения нескольких форм действия в речи главных героев произведения искусства.

Ключевые слова: вспомогательный глагол, собственное значение, дополнительное значение, категория *vid*, период действия-исполнения, тары действие-исполнение

Dilorom Nigmatovna Yuldasheva,

Professor of the Department of Uzbek Linguistics
of the Bukhara State University, candidate of
Pedagogical Sciences

Gulchekhra Khamzaevna Ortykova,

Master's student of the Department of
Uzbek Linguistics Bukhara State University

FORMS OF MOTION - UZBEK SPEECH BEAUTY

ANNOTATION

The Uzbek language is one of the languages that have seen the world with its centuries-old history, richness of words, richness of meaning and existing masterpieces. It also has expressive features that cannot be expressed succinctly and beautifully in any other language.

In Uzbek linguistics, the period of action (beginning, periodic or regular duration, full or complete completion), style (speed, ability) or the action of the performer through the forms of action of verbs and additional meanings, such as a different attitude to the situation (benevolence, interest). This linguistic phenomenon, which can be used in all forms of speech, can serve to identify specific semantic aspects of a particular expression.

The article shows the different meanings of several forms of action in the speech of the main characters of a work of art.

Keywords: auxiliary verb, proper meaning, additional meaning, *vid* category, validity-performance period, action-performance containers

Har bir millatning yashash tarzi, milliy urf-odat, qadriyatlarini, insonlarining o'zaro hamda turli voqea-hodisalarga munosabati, ruhiyati, xatti-harakatlari tarzi, umuman, xalqning bor bo'y-basti, avvalo, uning ona tilida aks etadi. Bunday o'ziga xoslik har bir tilda o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Kishilik jamiyatida insonlar tildan, asosan, kommunikativ birlik sifatida foydalanadilar. Zero, til nutqiy muloqot (diskurs) deb ataladigan, mohiyatan kishilarning o'zaro fikr almashinish jarayoni bo'lgan yaxlitlik uchun asosiy vositadir [6].

Tilda shunday ifoda xosliklar bo'ladiki, ular faqat shu til nutqidagina o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etadi. Masalan, ingliz tilida iboraviy fe'llar, rus tilida urg'uning so'z yasash xususiyatlari, rod va vid kategoriyalarini shu tillarning oziga xos nutq imkoniyatlari sifatida baholash mumkin. Negaki, ushbu til hodisalari orqali ifodalanuvchi nutq imkoniyatlarini boshqa tillarda to'laligicha aks ettirishning imkoni yo'q.

O'zbek tili ham o'zining so'zga boyligi, so'zda ma'no qirralarining betakrorligi, o'zining takrorlanmas ibora, maqol, hikmatli so'zlari bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Tilimizda xalqimizga xos his-tuyg'ular, tushuncha va tasavvurlar, urf-odat hamda an'analar chuqur aks etgan. Tilimizdagi hayo, ibo, andisha, oriyat, nomus, mehr-oqibat degan so'zlarni boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo'lmaydi. Ularni faqat o'zbek tili orqali ifoda etish mumkin.

Shuningdek, nutqimizda faol qo‘llanuvchi harakat tarzi shakllari flektiv tillarda mavjud bo‘lmagan o‘ziga xos nutq ifodasi hisoblanadi. To‘g‘ri, rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima ishlarida rus tiliga xos bo‘lgan vid kategoriyasi o‘zbek tilida harakat tarzi shakllari orqali ifodalanadi. Ammo shuni e‘tirof etish kerakki, vid kategoriyasi orqali ifodalanuvchi ma‘nolarini o‘zbek tilida to‘la ifodalay olinmagani kabi harakat tarzi shakllarini ham vid kategoriyasida aynan ifodalab bo‘lmaydi. Harakat tarzi shakllari vid kategoriyasiga nisbatan semantik jihatdan boyroq hodisa. Chunki harakat tarzi shakllari vid kategoriyasidek nafaqat tugallanganlik yoki takroriylik, balki davomiylik, qodirlik, sinash, kutilmaganlik, boshlanish, bir marta bajarish kabi bir qator qo‘shimcha ma‘nolarni ham ifodalay olish xususiyatiga ega. Buni o‘zbek va rus tillarida birgina aytmoq fe‘lini qiyoslash orqali isbotlash mumkin. Masalan,

O‘zbek tilida	Rus tilida
aytdi	сказал(а)
aytib qo‘ydi	сказал(а)
ayta boshladi	начал говорить
ayta oldi	смог сказать
aytib berdi	рассказал(а)
aytib soldi	сказал(а)
aytib ko‘rdi	сказал(а)
aytib chiqdi	сказал(а)
aytib o‘tdi	упомянул(а)
aytib turdi	пересказывал(а)
aytib tashladi	сказал(а)
aytib bo‘ldi	рассказал(а)

Jadvaldan ko‘rib turibdiki, ruscha fe‘llardagi совершенный va несовершенный вид shakllari orqali yuqoridagi ma‘nolarning hammasini ham yuzaga chiqarib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, biror matn o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilinganda tarjimon ushbu ma‘nolarning barchasini imkon qadar ifodalashga harakat qiladi, ammo bunda vid kategoriyasining o‘zi yetarli bo‘lmaganligi uchun tilning boshqa turli vositalaridan foydalaniladi. Masalan, Akbar bugun barcha ko‘rgan-bilganlarini aytib oldi – Акбар сумел рассказать все, что он видел, как только представился шанс.

O‘zbek tilida ravishdoshning -(i)b shaklidagi fe‘l bilan birikib kelgan **olmoq** ko‘makchi fe‘li harakat-holatning tez va oson, to‘la bajarilganlik ma‘nosini ifodalaydi. Gap mazmunidan esa harakat-holatning nutq vaziyatidan foydalangan holda bajaruvchi manfaati tomon yo‘nalish (o‘zi uchun, o‘z foydasiga) ma‘nosini ham anglash mumkin. Ushbu qo‘shimcha ma‘nolarni nutqda birgina oldi ko‘makchi fe‘li orqali ifodalash ushbu mazmundagi gapning rus tilida berilishi bilan qiyoslaganda shu tilning ifoda ko‘rki hisoblanadi, albatta.

Quyida o‘zbek tilida ayrim ko‘makchi fe‘llarning turli qo‘shimcha ma‘nolari hamda ularning izohiga misollar yordamida to‘xtalamiz. Masalan, Kimsan akam bobom bilan xayrlashayotganida ham ikki ko‘zini mendan uzmani, shu topda Oqsoqolniyam **yomon ko‘rib ketdim**. U Kimsan akamni **quchoqlab oldi**. Ha deganda **bo‘shata qolmaydi** [5].

Matnda qo‘llanilgan harakat tarzi shakllari haqida so‘z yuritishdan oldin, keling, ushbu matnni ko‘makchi fe‘llarsiz, ya‘ni faqatgina yetakchi fe‘llarni keltirish bilan takrorlaymiz: Kimsan akam bobom bilan xayrlashayotganida ham ikki ko‘zini mendan uzmani, shu topda Oqsoqolniyam **yomon ko‘rdim**. U Kimsan akamni **quchoqladi**. Ha deganda **bo‘shatmaydi**. Guvohi bo‘lganimizdek, matndan ko‘makchi fe‘llarni bemalol tushirib qoldirish mumkin. Biroq bunday holatda harakat-holat va harakat bajaruvchisi haqidagi turli belgi-xususiyatlar to‘la anglashilmay qolinadi.

Yomon ko‘rib ketdim harakat tarzi shaklida **ketdim** ko‘makchi fe‘li nafaqat harakat-holatning to‘la bajarilganlik, balki me‘yordan ortiq darajada ekanligini ifodalaydi. Ya‘ni asar qahramoni Robiya o‘zining ko‘ngil qo‘ygan insonining jangga ketishi oldidan u bilan bir lahza bo‘lsa-da

yuzma yuz turishi, biror og'iz so'z bilan suhbatlashishi uchun yo'l bermayotgan oqsoqolni negadir juda yomon ko'rganini aytadi. Robiya oqsoqolni avvaldan yomon ko'rmagan, balki shu paytning o'zida, shu bilan birga, me'yordan ortiq darajada yomon ko'rgan. Hamda ushbu ma'nolarni ifodalashda o'z nutqida ketdim ko'makchi fe'lidan foydalangan. Keyingi gapda oqsoqol nega Robiyaga yomon ko'rinib qolgani izohlanadi. Quchoqlab oldi harakat tarzi shaklida **oldi** ko'makchi fe'li ish-harakatning to'la bajarilganlik ma'nosi bilan birga bajaruvchining kuchli istak-xohishi bilan me'yordan ortiq amalga oshirilganlik ma'nolarini ifodalaydi. Ya'ni oqsoqolning ham Kimsanni urushga ketish oldidan to'yib bag'riga bosish istagi bildirilgan. Keyingi o'rinda qo'llangan bo'shata qolmaydi harakat tarzi shaklida **qolmoq** ko'makchi fe'li orqali ish-harakat bajarilishida boshqa shaxsning xayrixohligi ma'nosi anglashiladi. Ya'ni Robiya nutqida keltirilayotgan ushbu ko'makchi fe'li orqali uning oqsoqol Kimsan akani tezroq bo'shatishini xohlashi anglashiladi. Ingliz yoki rus tillarida ushbu jumla mazmunini ifodalash uchun I wish yoki Я бы хотел birikmalarini keltirishga to'g'ri keladi. Biroq o'zbek tilida, qolaversa, qiz bola nutqida bu tarzda birliklarni keltirish milliy qadriyatlarimizga munosib kelmaydi. Fikrning aytilishi kerak bo'lgan, ammo ayrim istak-xohish, g'azab, narat, quvonch, o'kinch kabi hislarni ifodalash uchun so'z qo'llash joiz bo'lmagan mana shunday pallalarda nutqimizda ko'makchi fe'llar juda qo'l keladi. Bunday so'zlar nutqimizda shaklan sodda va ixchamlik, mazmunan rang-baranglikni ta'minlaydi.

Masalan, Odamzodning qonida g'alati adolatsizliklar bo'ladi. Begonalardagi o'zgarishni darrov sezasiz-u, yaqin odamingizga e'tibor bermaysiz. Xuddi ota-onangizni birov sizga **bog'lab berib qo'ygandek**. Go'yo ular siz uchun abadiy yashashi shartdek. Oyim **keksayib qolganini**, sochlari **oqarib ketganini**, qovoqlari salqib, yuzi yillab to'shakka yopishib yotgan odamdek sarg'imtil zahil tusga kirganini endi payqadim [5].

Nutqimizda ba'zan bir vaqtning o'zida bir emas ikki ko'makchi fe'lining o'z mustaqil ma'nosini yo'qotib, biri ikkinchisini inkor etmagan holda o'zidan oldin qo'llanuvchi yetakchi fe'lining turli xil qo'shimcha ma'nolarini anglatishi hodisasi ham mavjud. Keltirilgan parcha matnida bog'lab berib qo'ymoq harakat tarzi shaklida ushbu hodisa kuzatiladi. **Berib** ko'makchi fe'li harakat-holatning to'la bajarilishi ma'nosi bilan birga o'zga uchun bajarilishi (o'zga manfaatiga yo'nalishi) ma'nosini, **qo'ymoq** ko'makchi fe'li esa harakatning to'liq bajarilishi va buning natijasida holatning yuzaga kelishi ma'nosini ifodalaydi. Ya'ni bog'lab berib qo'ymoq harakat tarzi shakli orqali kimdir ota-onani doim farzandi bilan birga bo'lishini ta'minlashi hamda shu holatni bir umr saqlab qolishi ma'nolari anglashiladi. Bu ma'nolarga matn mazmunidan kelib chiqib bajaruvchining o'z xatti-harakatidan norozilik, achchiqlanish ma'nolarini ham anglash mumkin.

Birgina ko'makchi fe'li turli o'rinlarda turli xil qo'shimcha ma'nolarni ifodalashi mumkin. Buni ko'rib o'tganimiz, bo'shata qolsaydi hamda keksayib qolmoq harakat tarzi shakllari tarkibidagi **qolmoq** ko'makchi fe'li misolida kuzatishimiz mumkin. Birida ish-harakat bajarilishida boshqa shaxsning xayrixohligi ma'nosi anglashilsa, ikkinchisida harakatning bajarilishi natijasida holatga o'tishi, ya'ni onaning keksalik holatiga tushishi ifodalanadi.

Birinchi va ikkinchi parcha matnlarida qo'llangan yomon ko'rib ketdim hamda oqarib ketgan harakat tarzi shakllari tarkibidagi **ketmoq** ko'makchi fe'lining ham ma'no anglatishda sezilarli farqni kuzatish mumkin. Ya'ni har ikki misolda ham ushbu ko'makchi fe'li harakat-holatning me'yordan ortiq darajada ekanligini ifodalaydi, ammo oqarib ketmoq birikuvida mavjud bo'lgan holatning saqlanib qolishi ma'nosi yomon ko'rib ketdim birikuvida mavjud emas. Ya'ni Robiya oqsoqolni faqatgina bir muddat juda yomon ko'rди, xolos. Agar ushbu birikma yomon ko'rib qoldim tarzida qo'llanganda, ushbu mazmunni anglashimiz mumkin edi. Biroq asar qahramoni tilidan aynan yomon ko'rib ketdim harakat tarzi shakli o'rinli tanlab aytilgan, chunki ushbu vaziyatda oqsoqolning bunday xatti-harakati kishining yomon ko'rib qolishi uchun sabab bo'lolmas edi. 2-misolda esa asar qahramoni Muzaffarning anchadan buyon razm solmagan onasining sochlari oqarishi bir muddatli holat emas, balki bir umrli keksalik g'am-tashvishlari belgisi edi.

Harakat tarzi shakllari o'zining ixcham shakli hamda keng ma'no doirasiga egalik xususiyati bilan nutqning barcha uslublarida birdek qo'llana oladi. Ayniqsa, inson ruhiyati bilan bevosita

bog'liq bo'lgan she'riyatda harakat tarzi shakllari orqali bir-biridan go'zal, mazmundor misralarni yuzaga keltirish mumkin.

O'zining qisqagina umri davomida butun o'zbek xalqining ko'nglidan joy ola bilgan "...yuragi xalq yuragi bilan hamohang uradi"gan shoir Muhammad Yusuf she'riyatida ham misralar qimmatini oshirishda harakat tarzi shakllarining alohida o'rni bor. Shoirning ushbu til birliklarining har biridan o'z o'rnida mahorat bilan foydalana olgani lirik qahramon his-tuyg'ularini kitobxon qalbiga o'z holicha yetib borishida muhim rol o'ynaydi.

Muhabbat, ey go'zal iztirob,
Ey ko'hna dard, ey ko'hna tuyg'u.
Ko'kragimga qo'lingni tirab,
Yuragimni **to'kib qo'yding**-ku.

Qancha ko'zlar menga zor edi,
Na g'am, na anduhim bor edi.
Qushday yengil ruhim bor edi,
Chok-chokidan **so'kib qo'yding**-ku.

Ne qilarding menga tegib sen,
Yengilmagan edim — yengib sen,
Boshlarimni yerga egib sen.
Qomatimni **bukib qo'yding**-ku.

Sen men uchun bir xayol eding,
Yaxshi bor yo yaxshi qol eding,
Jon kerakmi — mana ol endi,
Qiynar bo'lsang **qiynab to'yding**-ku.

Bilmam, nima edi maqsading:
Menga bir juft guling asrading,
Birin otin Kumush atading,
Birin ismin **Zaynab qo'yding**-ku!

Muhabbat, ey go'zal iztirob,
Ko'chang kezdim sarson, dovdirab,
Yuzlarimga yuzlaring tirab,
Ko'zlarimni **boylab qo'yding**-ku!. (M.Yusuf, "Muhabbat" she'ridan)

Ushbu she'rda bandlararo qofiya vazifasida qo'llangan to'kib qo'yding, so'kib qo'yding, bukib qo'yding, boylab qo'yding harakat tarzi shakllari tarkibida **qo'ymoq** ko'makchi fe'li kutilmaganlik, tez va oson bajarilishi hamda bajarilgan ish-harakat natijasida holatning yuzaga kelishi ma'nolarini ifodalaydi. Ya'ni muhabbat deb atalmish eng ko'hna iztirob kutilmaganda lirik qahramon yuragini osonlikcha to'kkani, qushday yengil ruhini chok-chokidan so'kkani, boshini egib, qomatini bukkani hamda ko'zlarini boylaganidan ruhan ezilmoqda.

She'rning to'rtinchi hamda beshinchi bandlari tarkibidagi qiynab to'yding, Zaynab qo'yding birikmalarini harakat tarzi shaklida o'rganolmaymiz. Chunki ushbu birikmalar shaklan harakat tarzi shakllariga o'xshasa-da, mazmunan har biri o'z mustaqil ma'nosiga ega bo'lgan alohida-alohida so'z hisoblanadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, harakat tarzi shakllarida ko'makchi fe'l o'zi bog'lanib kelgan ravishdosh shaklidagi yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish tarzini ifodalasa, ushbu birikmalarda ravishdosh shaklidagi so'z qanday?, qay holda? So'roqlariga javob bo'lib, o'zi bog'langan fe'lning tarzi ma'nosini ifodalaydi.

Qo'ymoq ko'makchi fe'li ko'p hollarda kutilmaganlik, ish-harakat natijasida holatning yuzaga kelishi bilan birga harakatning xohish-ixtiyordan tashqari, xohish-ixtiyorga qarama-qarshi holda yuz berishi ma'nosini ham ifodalaydi. Masalan,

Oy mening yelkamga
O'tirib olgan,
Oftob g'avg'o solar
Yurgan yo'limga.
Xayol tushovidan
Chiqolmay qolgan
Umrinni **topshirib**

Qo'ydim ko'nglimga. (M.Yusuf, "Surat" she'ridan)

Ushbu misralarda qo'llangan topshirib qo'ymoq birikuvidan shoirning xayol olamiga g'arq bo'lgan umrini o'zi bilmagan holda ko'ngliga topshirgani mazmuni anglashiladi. Shoirning quyida keltirilgan misralarida esa **qo'ymoq** ko'makchi fe'lining boshqa bir qo'shimcha ma'no ifodalashini kuzatamiz:

Yoningda qon yig'lagan bir
Shoiringga **qarab qo'y**,
Gar Qo'qonga yo'ling tushsa,
Detdomlarni **so'rab qo'y**.
Hech bo'lmasa Usmon hokin
Keltirmoqqa **yarab qo'y**,
O'lislarda qurib qolgan

Qu dug'imsan, Vatanim... (M.Yusuf, "Vatanim" she'ridan)

Ushbu misralarda qo'llangan qarab qo'y, so'rab qo'y, yarab qo'y harakat tarzi shakllari tarkibidagi qo'ymoq ko'makchi fe'li yetakchi fe'ldagi harakatning bir marta bajarilishi ma'nosini bildiradi. Ko'makchi fe'ling buyruq-istak mayli shaklida berilishi ish-harakt bajarilishi uchun boshqa bir shaxsning xohish-istagi mazmunini anglatadi. Ya'ni shoir Vatani, qolaversa, butun xalqidan qon yig'lab yozayotgan shoiriga ham bir quloq tutishini, Qo'qon tomonlarga borgan mahali detdomlardan bir xabar olishini, boringki, hech bo'lmaganda Usmon Nosir xokini o'z yurtiga keltirishini o'tinib so'rash maqsadida qo'ymoq ko'makchi fe'lidan mohirona foydalana olgan. Satrlarga shoir his-tuyg'ularini boricha singdirish yo'lida ishbu o'rinda bundan samaraliroq usulni topish juda qiyin.

O'zbek she'riyatda harakat tarzi shakllaridan foydalanish mahoratini shoirning quyida keltirilgan "Ota" nomli she'ri misolida ham kuzatish mumkin.

Armonim bor, bu dunyoda armonim bor,
Qoq dalada o'tlar bosgan o'rmonim bor.
Qizg'aldoqday boshim egik bu makonda,
Yonib **yashab o'tmagan** otajonim bor.

Ota desam, bag'ri-dilim yonaverar,
Kunim yonar, oyu yilim yonaverar,
Mozoriga qo'ygan gulim yonaverar,
Tutunlarga **to'lib ketgan** osmonim bor.

Odam bo'lib bir odamni tushunmaslar,
Ko'zingda yosh ko'rib ham goh o'kinmaslar,
Bosgan izim **poylab yurgan** ey, nokaslar,
Qabrdan **qo'l cho'zib turgan** qalqonim bor...

Men otamdan qolgan erkin sado-sasman,
Qonimga yot navolarga qayrilmasman,
O'lgunimcha endi undan ayrilmasman -
O'z **otamdek bo'lib qolgan** imonim bor.

Armonim bor, bu dunyoda armonim bor,

Keng dalada gullar bosgan o'rmonim bor,
 Qizg'aldoqlar bosh egib qon **yig'lab turgan**
 Bu makonda mening ham nurjahonim bor.

She'rdagi bandlararo qo'llangan qofiyaning sifatlovchisi vazifasida qo'llangan yashab o'tmagan, to'lib ketgan, qo'l cho'zib turgan, otamdek bo'lib qolgan, yig'lab turgan harakat tarzi shakllarining har biri shoir qalamga olmoqchi bo'lgan his-tuyg'ularni ifodalashda yaxshigina qurol vazifasini o'tagan. Chunonchi, birinchi banddagi **yashab o'tmoq** birikuvida o'tmoq ko'makchi fe'li ish-harakatning to'la yakunlanganlik ma'nosini ifodalaydi, ko'makchi fe'l tarkibidagi – ma bo'lishsizlik shakli esa yetakchi fe'l mazmuniga taalluqli. Shoir otasining butun umri davomida yonib yashayolmagani va o'z hayotini shu tarzda o'tkazganini, bundan o'zining boshi qizg'alg'oqdek egik holga tushganini armon bilan so'zlaydi.

Badiiy adabiyotda inson hayoti baxtga yoki tashvishga, ko'ngli esa orzu yoki armonga to'lib qolgan tasvirlarni ko'p uchratamiz. Ammo ayni damda shoir osmoninig tutunlarga to'lib ketganiga guvoh bo'lamiz. Bandda qo'llangan **to'lib ketmoq** harakat tarzi shakli tarkibida ketmoq ko'makchi fe'li harakat-holatning to'la bajarilishi ma'nosi bilan birga uning normal holatdan yuqoriligi ma'nosini ham ifodalaydi. Shoirning ota qarshisida shunday buyuk bir armoni bor ediki, uning nomini tilga olganida bag'ri-dili, oy-u kuni, hatto mozoriga qo'ygan guligacha yonaverib uning butun osmoni tutun bilan qoplanadi.

Uchinchi va beshinchi bandlarda qo'llangan **poylab yurmoq, qo'l cho'zib turmoq** hamda **yig'lab turmoq** birikuvlarida yurmoq hamda turmoq ko'makchi fe'llari harakat-holatning uzluksiz, muntazam davomiyligi ma'nosini ifodalaydi.

To'rtinchi bandda **otamdek bo'lib qolmoq** birikuvida esa qolmoq ko'makchi fe'li nafaqat harakat-holatning muntazam davomiyligi ma'nosini, balki harakatninig holatga o'tishi ma'nosini ham ifodalaydi.

Quyida keltirilgan misralarda qolmoq ko'makchi fe'lining yana bir mazmunni ifodalay olishini kuzatamiz.

O'ylar suraverdim kechalar tanho,
 Goho, jiqqa yoshga to'lganda ko`zim.
 Va seni sevmoqdan oldin bir kuni

Dildan **sevib qoldim** o`zimni o`zim... (M.Yusuf, "Sevgi bu..." she'ridan)

Ushbu o'rinda qolmoq ko'makchi fe'li yetakchi fe'ldan anglashilgan harakat-holatning bajaruvchi tomonidan beixtiyor, kutilmaganda hamda osonlikcha bajarilganlik ma'nolarini ifodalab, shoirning kechalari tanholikda o'z yori haqida o'ylar suraverib, gohida ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan holda yorini sevib qolishidan bir kun oldin o'z-o'zini sevgani o'z ixtiyori bilan hisoblashmay, beixtiyor, to'satdan sodir bo'lganligini anglatadi.

Harakat tarzi shakllarining yuqorida keltirilgan misollar izohidan shuni anglash mumkinki, deyarli barcha ko'makchi fe'llar ravishdosh shaklidagi yetakchi fe'ling bir emas, bir necha qo'shimcha ma'nolarini ifodalab, nutq mazmunida rang-baranglikni ta'minlaydi.

Quyida jadvalda ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanuvchi fe'llarning yetakchi fe'lga birikish usullari hamda ular anglatadigan qo'shimcha ma'no turlarini keltiramiz.

Ravishdosh shakli	Ko' makchi fe' l	Ma'nosi va misollar
+ a	qol	1) harakatni bajarishga ruxsat, rozilik, xayrixohlik: chiqa qolay, bora qoling, ayta qol 2) xushmuomalalik: keta qol, bora qol 3) maslahat, iltimos ma'nosining kuchayishi: qola qol, chopa qol, yota qol
+ ib	qol	1) harakatning kutilmagan, tasodifiy ekanligi: duch kelib qolmoq, kelib qolmoq, so'z ochib qolmoq

		2) yetakeh fe’ldagi harakatning holatga aylanishi: ilib qolmoq, sovub qolmoq, qurib qolmoq, bo’shab qolmoq 3) harakat-holatning davomliliigi: turib qolmoq, o’ylanib qolmoq, qarab qolmoq 4) harakatning tamomlanishiga yaqinlashish: bo’lib qolmoq, borib qolmoq, bitib qolmoq, pishib qolmoq 5) harakatning xohish-ixtiyordan tashqari, hatto xohish-ixtiyorga qarama - qarshi yuzaga kelishi: aynib qolmoq, ketib qolmoq, tanib qolmoq 6) harakatni bajarish uchun mavjud bo’lgan sharoit g’animat ekanligi: ishlab qolmoq, aytib qolmoq
+ a	ket	harakatning to’satdan boshlanishi va shu xilda davom etishi: so’zlay ketdi, kuylay ketdi, o’qiy ketdi
+ib	ket	1) harakatning to’la bajarilishi: tarqab ketmoq, qo’shilib ketmoq, ulg’ayib ketmoq 2) normal holatdan kuchlilik: semirib ketmoq, oqarib ketmoq, ko’payib ketmoq 3) harakatning boshlanishi va davom etishi: aytib ketdi, do’pposlab ketdi, maqtab ketdi harakatning to’satdan amalga oshishi
+ a,+y	boshla	harakat amalga osha boshlagani: ayta boshlamoq, gapira boshlamoq, so’ray boshlamoq
+ a,+y	bil	harakatni amalga oshirishga qodirlik: ajrata bilmoq, ishlata bilmoq, ko’rsata bilmoq
+a,+y	yoz	harakatning amalga oshib ketishiga oz qolgani: yiqila yozdi, tugata yozdi, tamom bo’layozdi
+ a,+y	ol	harakatni bajarish qobiliyatiga egalik: so’zlay olmoq, ko’ra olmoq, yugura olmoq
+ ib	ol	1) harakatning bajaruvchi tomonga yo’nalgabliligi: chaqirib oldi, yig’ishtirib oldi 2) harakatning bajaruvchi manfaati uchun amalga oshirilishi: o’rganib oldi, to’g’rilab oldi, chiqarib oldi 3) harakat bajarilishi natijasida holatning yuzaga kelishi: osib oldi, o’rab oldi, bekinib oldi 4) harakatning bir marta bajarilishi: yo’talib oldi, qimirlab oldi, sho’ng’ib oldi
+a,+y	ber	harakatning moneliksiz, to’xtovsiz davom etishi: haydayvermoq, yurgizavermoq, yeyavermoq
+ ib	ber	harakat boshqa bir kishining manfaatini ko’zlab amalga oshirilishi: aytib bermoq, topib bermoq, bilib bermoq
+ ib	tashla	1) harakatning to’la va yuqori darajada bajarilishi: yeb tashlamoq, ezib tashlamoq, chiqarib tashlamoq 2) harakatning tez, qiyinchiliksiz bajarilishi: o’qib tashladi, aytib tashladi, javob berib tashladi 3) harakatning ko’p marta yyuz berishi: urib tashladi, tishlab tashladi, ko’kartirib tashladi
+ ib	qo’y	1) harakatning bajarilishi va buning natijasida holatning yuzaga kelishi: suwab qo’ymoq, ochib qo’ymoq, ilib qo’ymoq 2) harakatda davomlilik: o’ylantirib qo’ymoq, qaratib qo’ymoq 3) harakatning xohish-ixtiyordan tashqari, xohish-ixtiyorga qarama-qarshi holda yuz berishi: bildirib qo’ymoq, sezdirib qo’ymoq 4) harakatning bir marta bajarilishi: kulib qo’ydi, turtib qo’ydi
+ ib	yubor	1) harakatning to’la va kuchli darajada bajarilishi: taltaytirib yubormoq, susaytirib yubormoq 2) harakatning juda qisqa vaqt ichida tez bajarilishi: chalib yubordi, aytib yubordi, kulib yubordi
+ ib	yur, yot	harakatning ma’lum muddatdan beri davomli amalga oshishi: aytib yurmoq, kezib yurmoq, ishlab yotibdi, kuylab yotibdi
+ ib	tur	harakatning ma’lum muddatdan beri takror davomli amalga oshishi: kelib turmoq, aytib turmoq
+ ib	bor	harakatning ma’lum muddatdan beri to’liq davomli amalga oshishi: to’ldirib bormoq, aytib bormoq
+ ib	kel	1) harakatning ma’lum muddatdan beri muntazam amalga oshishi: yozib kemoq, gapirib kelmoq

		2) harakatning endi yuzaga kelganligi: (qovunlar) pishib kelyapti, (uzum) qizarib kelyapti
+ ib	chiq	harakatning to'la-to'kis tugallanganligi: yig'lab chiqmoq, o'qib chiqmoq, aylanib chiqmoq
+ ib	bo'l	1) harakatning tugallanganligi, to'la bajarilganligi: yi'g'ilib bo'ldi, aytib bo'ldi, pishib bo'ldi 2) harakatning bajarilishi uchun imkoniyatning borligi: borib bo'ladi, yozib bo'ladi, o'rganib bo'ladi
+ ib	bitir	harakatning to'la tugallanganligi: yonib bitmoq, ekib bitirmoq
+ ib	ko'r	harakatning sinash maqsadida amalga oshirilishi: ichib ko'rmoq, yozib ko'rmoq
+a,+y	ko'r	harakatni bajarmaslikni qat'iy ta'kidlash, ogohlantirish: aytako'rmang, bora ko'rmang
+ ib	boq, qara	harakatning bilish, aniqlash, sinash maqsadida amalga oshirilishi: o'qib boqmoq, o'ylab qaramoq

Nutqimizda qo'llanuvchi ko'makchi fe'llar bilan bog'liq bunday ma'no nozikliklari, odatda, shu til sohiblari, ya'ni faqatgina tili o'zbek tilida chiqqan insongina teran va tiniq holda tushunib, ulardan o'r inli hamda maqsadli foydalana oladi [2]. Buning uchun esa unga hech qanaqa til grammatikasini tushuntirishning hojati bo'lmasligi kundek ravshan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hojiyev A. O'zbek tilida ko'makchi fe'llar. – T., Fan, 1966. [https:// ziyouz.com](https://ziyouz.com)
2. Юлдашева Дилором Нигматовна. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари: педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – 124 б.
3. Дилором Юлдашева. Нутқий мулоқотда сукутнинг ўрни. Образование и инновационные исследования. Том 1 № 1 (2020). <http://interscience.uz/index.php/home>
4. Дилором Юлдашева (Dilorom YULDASHEVA). Профессиональные фразеология (Professional Phraseology). International conference on academic studies in philology (BICOASP) 26-28 September 2019 Bandırma <https://d1wqtxts1xzle7.cloudfront.net/60539392/>
5. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – T., Sharq, 2012. – B.13-109. [https:// ziyouz.com](https://ziyouz.com)
6. Юлдашева Д. Н. Сукут нутқий мулоқотнинг таркибий қисми сифатида //Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 3. – №. 3. www.tadqiqot.uz
7. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna, Gulchekhra Toshpulot qizi Chullieva. THE ROLE OF NOVERBAL MEANS IN SPEECH MEANING. International Engineering Journal For Research & Development, Vol.6, Issue 2 published May 16, 2021. – Pag.1956-1961. www.iejrd.com <http://www.iejrd.com/index.php/%20/article/view/1956>
8. <http://yuldasheva.buxdu.uz/index.php/kutubxona/2021-02-23-13-28-46/112-hozrgi-o-zbek-tili>. Hozirgi o'zbek tili
9. Muhammad Yusuf. Saylanma. – T., Sharq, 2004. [https:// ziyouz.com](https://ziyouz.com)

**СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ**

4 ЖИЛД, 2 СОН

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА**

ТОМ 4, НОМЕР 2

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART**

VOLUME 4, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000